XALQ DEPUTATLARI JIZZAX VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 4-mart VII-7-59-3-0-K/25 Jizzax viloyati

Jizzax shahrining “Oqqo‘rg‘onlik” va “Toshloq” mahallalari hududidagi yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvardagi PQ-98-sonli, 2025-yil 25-dekabrdagi PQ-404–sonli qarorlariga asosan Jizzax shahar “Oqqo‘rg‘onlik” mahallasi “Oqqo‘rg‘onlik” ko‘chasi hududida manzilli dastur asosida viloyat “Ko‘p tarmoqli markaziy shifoxonasi” qurilishi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 20-sentabrdagi 266-sonli qaroriga asosan Jizzax shahar “Toshloq” mahallasi hududida joylashgan “Jizzax suv ta’minoti” MChJga qarashli yer maydoni orqali “Sayiljoy” mahallasi bilan tutashtiruvchi yangi avtomobil yo‘li qurilishi hamda yo‘l yoqasida zamonaviy ko‘p qavatli uylarning qurilishi munosabati bilan hududdagi qurilish osti maydoni va unga tutash hududlardagi buzilishi belgilangan obyektlar yer uchastkalarini olish maqsadida “Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish tartib-tamoyillari to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 21-moddasiga hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvardagi “2022-2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-98-sonli, 2025-yil 25-dekabrdagi “2024-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-404–sonli, Vazirlar Mahkamasining O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 20-sentabrdagi “2030-yilgacha bo‘lgan davr uchun Jizzax shahrining bosh rejasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 266-sonli qarori 2025-yil 12-fevraldagi 65-F-sonli farmoyishida Jizzax shahrining “Oqqo‘rg‘onlik” va “Toshloq” mahallalari hududida infratuzilma obyektlarining barpo etilishi munosabati bilan Davlat va jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olinishi zaruriyati vujudga kelganligi;

- Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2025-yil 25-fevraldagi VII-6-45-3-0-K/25-sonli qarori bilan Jizzax shahar hokimligi (keyingi o‘rinlarda – tashabbuskor) va

buzilishga tushgan obyekt egalari (keyingi o‘rinlarda – huquq egalari) o‘rtasida “Ochiq muhokama” yig‘ilishi o‘tkazishga ruxsat berilganligi;

- Jizzax shahar hokimligi tomonidan, hokimlikning veb-saytida 2025-yilning 25-fevral kuni soat “17-00” da Toshloq mahallasidagi “Zamin” qurilish firmasi uchun ajratilgan ma’muriy binoda “Ochiq muhokama” yig‘ilishi o‘tkazilishi to‘g‘risida axborot joylanganligi;

- Joriy yilning 25-fevral kuni soat “17-00” da Toshloq mahallasidagi “Zamin” qurilish firmasi uchun ajratilgan ma’muriy binoda tashabbus va huquq egalari o‘rtasida “Ochiq muhokama” yig‘ilishi bo‘lib o‘tganligi, “Ochiq muhokama” yig‘ilishida huquq egalarining 3/2 qismidan ishtirok etganligi (Oqqo‘rg‘onlik mahallasidagi huquq egalarining 4 nafaridan 3 nafari, Toshloq mahallasidagi huquq egalarining 3 nafari to‘liq ishtirok etdi) sababli “Muhokama yig‘ilishi o‘tgan” deb hisoblanganligi, “Ochiq muhokama” yig‘ilishi yakunida tashabbuskor va huquq egalari ishtirokida yig‘ilish bayonnomaning tasdiqlanganligi;

- “Ochiq muhokama” yig‘ilishi audio va videoyozuvga olinganligi, jarayon mahalliy ommaviy axborot vositalarida va shahar hokimligining veb-saytida yoritilganligi;

- Tashabbuskor – Jizzax shahar hokimligi 2025-yil 26-fevralda xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashiga Jizzax shahrining “Oqqo‘rg‘onlik” va “Toshloq” mahallalari hududida infratuzilma obyektlarining barpo etilishi munosabati bilan hududdagi qurilish osti va unga chegaradosh hududlarni Davlat va jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarini olib qo‘yish to‘g‘risidagi Kengash qarori qabul qilinishida amaliy yordam so‘rab yozgan 01/01-70 – sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish tartib-tamomillari to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq buzilishga tushayotgan obyektlar va huquq egalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar 1 – va 2 – ilovalarga muvofiq tasdiqlansin hamda O‘zbekiston Respublikasining “Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq ilovalardagi yer uchastkalari jamoat ehtiyoji uchun olib qo‘yilsin.

3. Yer uchastkalarini olib qo‘yish, shu jumladan huquq egalariga kompensatsiya to‘lash bilan bog‘liq masalalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-dekabrdagi “Jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararlarni kompensatsiya qilish bo‘yicha maqsadli jamg‘armalar mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash haqida”gi 1047-sonli talablari asosida to‘lanishi ko‘rsatib o‘tilsin.

4. Tashabbuskor – Jizzax shahar hokimligi (K.Xolmurodov) huquq egalari bilan kompensatsiya shartlari, turlari va miqdorlari bo‘yicha kelishuvga erishish va viloyat hokimligi huzuridagi “Jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararlarni kompensatsiya qilish” hududiy maqsadli jamg‘arma kuzatuv Kengashiga kelishuv natijalari bo‘yicha talabnoma taqdim qilish vazifasi topshirilsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 12-fevraldagi 65-F-sonli farmoyishi 3-bandi ijrosini ta’minlash maqsadida, viloyat hokimligi huzuridagi “Jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararlarni kompensatsiya qilish” hududiy maqsadli jamg‘arma kuzatuv Kengashi (B.Axmedov)ga Respublika kompensatsiya komissiyasiga talab etiladigan hujjatlarni va mablag‘lar miqdoridagi to‘g‘risidagi axborotni taqdim etish vazifasi yuklatilsin.

6. Viloyat hokimligi Yer uchastkalari olib qo‘yilishi va kompensatsiya berish ishlarini muvofiqlashtirish shu’basi (B.Qaynarov) ushbu qarorni hokimlik rasmiy saytida, shuningdek ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinishini ta’minlasin.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi, viloyat hokimining qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, komunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish bo‘yicha o‘rinbosari va viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari Z.Azimov zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashi raisi

SHUKUROV PARDA
XXX

Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining
2025-yil 4-martdagi
VII-7-59-3-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Jizzax shahrining “Oqqo‘rg‘onlik” mahallasidagi olib qo‘yilishi rejalashtirilgan obyektlar to‘g‘risida ma’lumot

№	Mulkdor nomi F.I.Sh	Manzili	Mulk turi		Huquqni belgilovchi hujjat (hokim qarori, notarial shartnoma, Sud qarori, order va boshqalar)			Maydoni, (kv.metr)		Olib qo‘yilayotgan yer uchastkasining geografik koordinatlar raqami
			Noturar	Turar	Raqami	Sanasi	Kadastr raqami	yer maydoni	qurulish osti maydoni	
Jami			**4**	**0**	**X**	**X**	**X**	**647,77**	**557,79**	**x**
1	Yusupov Maruf	Oqqo‘rg’onlik MFY	noturar		2029003080669-Qonun bo‘yicha merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risidagi GUVOXNOMA	23.01.2019	13:13:03:04:01:0165	17	17	N40°09'17.8253" E67°50'06.8994"
2	Kobulov Sherzod	Oqqo‘rg’onlik MFY	noturar		№ 1223- Jizzax shahar xokimi qarori	14.07.2014	13:13:03:04:01:0725	440	350,02	N40°09'17.2644" E67°50'03.4812"
3	Samoviy Imkoniyat" MCHJ	Oqqo‘rg’onlik MFY	noturar		reyestr 1/9070-Xadya shartnomasi	01.08.2013	13:13:03:04:01:0225	40,77	40,77	N40°09'17.7737" E67°50'06.5856"
4	Shomansurov Ilhom	Oqqo‘rg’onlik MFY	noturar		№ 1146- Jizzax shahar xokimi qarori	29.12.2006	13:13:40:01:02:0097	150	150	N40°09'17.5264" E67°50'05.1686"

Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining
2025-yil 4-martdagi
VII-7-59-3-0-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Jizzax shahrining “Toshloq” mahallasidagi olib qo‘yilishi rejalashtirilgan obyektlar to‘g‘risida ma’lumot

№	Mulkdor nomi F.I.Sh	Manzili:	Mulk turi:		Huquqni belgilovchi Hujjatlar hokim qarori, notarial shartnoma, sud qarori, order va boshqalar			Maydoni (kv.metr)		Olib qo‘yilayotgan yer uchastkalarini goegrafik koordinatalari
			noturar	turar	raqami	sanasi	kadastr raqami	yer maydoni	qurilish osti maydoni	
	Jami:		**1**	**2**	**X**	**X**	**X**	**2947,00**	**929,14**	
1	Soatova Farida Sarvarovna	Toshloq MFY		turar	Uy-joy hadya shartnomasi reyestri 200	19.01.2010	13:13:02:03:01:0169	747,00	321,46	40.125048,67.826843
2	Soatov Odiljon	Toshloq MFY		turar	H.Q-515	04.04.2013	13:13:02:03:01:0293	600,00	176,13	40.124783,67.826945
3	“Aziza CREDO MAX”	Toshloq MFY	noturar		Oldi sotdi shartnoma KSh 068255JZ	17.09.2024	13:13:40:01:01:0437	1600,00	431,55	40.124417,67.823760